

JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING DIDAKTIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Norqulov Shovkat Turg'unbayevich

Guliston davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining didaktik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalarini o'rganadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga avvalgidan ko'ra ko'proq mas'uliyat yuklana boshladi. Avvallari u bolalarni jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullantirish, o'quvchilarga jismoniy mashqlarni o'rgatgan bo'lsa, bugungi kunda uning vazifalari kengaygan va u nafaqat o'qituvchi, balki zamonaviy o'qitish usullarini ta'minlovchi pedagog, o'quvchilar va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzining targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak. Maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, jismoniy tarbiya usullaridan samarali foydalanish orqali jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining didaktik (ta'lim) ko'nikmalarini rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, didaktika, ta'lim usullari, mutaxassis, og'zaki, ko'rgazmali, ko'nikma, jismoniy mashg'ulot, sog'lom turmush tarzi, jismoniy sifatlar.

РАЗВИТИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Норкулов Шовкат Тургунбаевич

Старший преподаватель кафедры «Педагогика» Гулистанского государственного педагогического института

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются вопросы совершенствования системы подготовки квалифицированных педагогических кадров в области физической культуры и спорта в нашей республике, развития дидактического мастерства учителей физической культуры. Анализ показывает, что в современной системе образования на учителей физической культуры возлагается больше ответственности, чем раньше. Сначала он занимался физкультурой детей, обучал студентов физическим упражнениям, сегодня его обязанности расширились и он является не только учителем, но и педагогом, который обеспечивает современными методами обучения студентов, а также должен пропагандировать здоровый образ жизни среди населения. В статье рассматриваются вопросы подготовки квалифицированных кадров в сфере физической культуры и спорта, развития дидактических (воспитательных) навыков учителей физической культуры за счет эффективного использования методов физического воспитания, пропаганды здорового образа жизни среди населения.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, дидактика, воспитательные методики, экспертные, устные, наглядные, умения, физическая культура, здоровый образ жизни, физические качества.

DEVELOPMENT OF DIDACTIC SKILLS OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Norkulov Shovkat Turgunbaevich

Senior teacher of the «Pedagogy» department of Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract. This study examines the issues of improving the system of training qualified pedagogical personnel in the field of physical education and sports in our republic, and developing the didactic skills of physical education teachers. The analysis shows that in the modern education system, physical education teachers are given more responsibility than before. At first, he engaged children in physical activities, taught physical exercises to

students, today his duties have expanded and he is not only a teacher, but also a pedagogue who provides modern teaching methods, students and should also promote healthy lifestyles among the population. The article discusses the training of qualified personnel in the field of physical education and sports, the development of didactic (educational) skills of physical education teachers through the effective use of physical education methods, and the promotion of a healthy lifestyle among the population

Key words: physical education, sports, didactics, educational methods, expert, oral, visual, skills, physical training, healthy lifestyle, physical qualities.

Kirish. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportga doir fanlarni o‘qitishga qaratilgan nazariy va amaliy asoslari, bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, ushbu sohada kadrlar tayyorlashda pedagogning zamonaviy yondashuvi va kasbiy mahorati orqali o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarga ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko‘rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma‘lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda 62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirish.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta‘limi muassasalariga jalb etish va boshqalar. Ushbu vazifalar tegishli oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining didaktik ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qilmoqda.

Maqolamizda umumiy o‘rta ta‘lim maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining didaktik ko‘nikmalarini shakllantirish, takomillashtirishga e‘tibor qaratdik.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish bo‘yicha ko‘plab olimlar izlanish olib borgan. Ulardan I.I.Perevarzin, V.I.Joldak, O.N.Stepanova, M.S.Axmatovlarning ilmiy ishlarini alohida ta‘kidlash joiz. Jismoniy tarbiya va sport sohasida makalali mutaxassislar tayyorlashning nazariy-metodik asoslarini tadqiq etishga doir xorijlik olimlar V.I.Utkin, V.A.Salnikov, E.V.Bondorenko, L.P.Matveev hamda respublikamiz olimlaridan N.T.To‘xtaboyev va boshqalarning ilmiy izlanishlarini e‘tirof etish mumkin.

A.Abdullayev, Sh.Xonkeldiyevlar jismoniy tarbiya tushunchasini pedagogik jarayon sifatida o‘zlarining nazariy qarashlarini ilgari surgan bo‘lib, jismoniy tarbiya inson organizmini morfologik va funksionaljihatidan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.

Zamonaviy ta‘lim tizimida jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga avvalgidan ko‘ra ko‘proq mas‘uliyat yuklana boshladi. Avvallari u bolalarni jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullantirish, o‘quvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatgan bo‘lsa, bugungi kunda uning vazifalari kengaygan va u nafaqat o‘qituvchi, balki zamonaviy o‘qitish usullarini ta‘minlovchi pedagog, o‘quvchilar va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzining targ‘ibotchisi ham bo‘lishi kerak. Bu masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ham o‘z aksini topgan.

Muhokama va natijalar. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining maktabdagi faoliyati bolalarning jismoniy rivojlanishi, ularning salomatligini mustahkamlash va bolalarga sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy asoslarni singdirish uchun mo‘ljallangan.

Bolalar bilan mashgʻulotlar uchun oʻqituvchi quyidagilarga ega boʻlishi kerak:

- oʻquv mashgʻulotlariga tuzatishlar kiritish uchun oʻquvchining ichki dunyosiga kirib borishni, uning holatini tushunishni taʼminlaydigan kuzatish;
- konstruktivlik, shaxsni shakllantirish va turli vaziyatlarda oʻquvchining xatti-harakatlarini oldindan bilish uchun;
- materialni tushunarli tarzda taqdim etishni taʼminlaydigan didaktik koʻnikmalar;
- oʻquvchilar bilan doʻstona munosabatlar oʻrnatishga imkon beruvchi muloqot qobiliyatlari;
- oʻquvchilar yoki sportchilarni samarali tayyorlashda, shuningdek, sport tadbirlarini oʻtkazishda namoyon boʻladigan tashkilotchilik qobiliyati;
- pedagogik va psixologik sohada tajribani umumlashtirishni oʻz ichiga olgan akademik koʻnikmalar;
- tashxis qoʻyish qobiliyatlari oʻquvchilarni oʻquv davrida tayyorlash jarayoni ustidan nazoratni muvaffaqiyatli amalga oshirishda, musobaqalarga sportchilarni tanlash, dastlabki tibbiy yordam koʻrsatish va boshqalar.


Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilarining didaktik koʻnikmalarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya fanida qoʻllaniladigan bir qator metodlarni chuqur oʻrganish talab qilinadi. Jismoniy tarbiyaning oʻziga xos usullari:

- 1) qatʼiy tartibga solinadigan mashqlar usullari;
- 2) oʻyin usuli (mashqlarni oʻyin shaklida qoʻllash);
- 3) raqobat usuli (mashqlarni musobaqa shaklida qoʻllash).

Bu metodlar yordamida jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini oʻrgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash bilan bogʻliq aniq vazifalar hal etiladi.

Jismoniy tarbiyaning umumiy pedagogik usullari:

- 1) ogʻzaki usullar;
- 2) koʻrgazmali usullar.



Jismoniy tarbiya metodologiyasida usullarning hech biri eng yaxshi deb cheklanishi mumkin emas. Faqatgina ushbu usullarning uslubiy tamoyillarga muvofiq optimal kombinatsiyasi jismoniy tarbiya vazifalari kompleksini muvaffaqiyatli amalga oshirishni taʼminlaydi.

Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilarining didaktik (taʼlim) koʻnikmalarining rivojlanganligi dars samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bizga maʼlumki, didaktikaning maqsadi: taʼlim berish, oʻqitish, oʻrgatishni amalga oshirishdir. Didaktika “nimani?” va “nima uchun?” oʻqitish kerak degan savollar

bilan shugʻullanadi.

XVII asrda chex pedagogi Ya.A.Komenskiy didaktikani “hammani barcha narsalarga oʻqitish, oʻrgatish universal sanʼati” deya talqin etgan. U “Buyuk didaktika” asarida (1657-yil) didaktikaning asosiy masalalarini ishlab chiqqan. XIX asr boshlarida nemis pedagogi F.Gerbart didaktikaga taʼlim olishni tarbiyalovchi yaxlit nazariya tarzida qaragan.

Koʻnikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati. Jismoniy tarbiya oʻqituvchilari kasbiy faoliyatiga doir egallagan nazariy bilimlarini dars jarayonida qoʻllay olishi va oʻquvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarining rivojlanishida muhim hisoblanadi.

Xulosa. Shuni taʼkidlash joizki, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri bu sohada mutaxassis kadrlar salohiyati sanaladi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi qoʻygan talablarni toʻliq bajarishga erishishdir.

Jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilarining didaktik koʻnikmalarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport boʻyicha kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, sohaga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish hamda jismoniy tarbiya usullari dars jarayonida samarali qoʻllash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni. PF-6099. 2020-yil 30-oktabr.

Abdullayev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. 3-toʻldirilgan nashri. Fargʻona, 2021

Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Xankeldiyev SH.X. Tahriri ostida. Darslik. 2-toʻldirilgan nashri. T.: “Navruz” nashryoti, 2019.

Уткин В.И., Ревенко Е.М., Сальников в.а. // Физическая культура: воспитание, образование, Тренировка. -2010

6. Toʻxtaboyev n.t. Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga tashkiliy-pedagogik yondashuv. p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2011.